



# TEXNOLOGIYA FANI DARSLARIDA XALQ HUNARMANDCHILIGI

## SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Rajabova Dilfuza Abdumajitovna*

*Nizomiy nomidagi O'MPU o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnologiya fani darslarida o'quvchilarning xalq hunarmandchiligin o'r ganishning o'ziga xos xususiyatlarini va amaliy bilimlarini shakllantirish yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещается формирование специфических особенностей и практических знаний учащихся при изучении народных промыслов на уроках технологии.

**Annotation:** This article describes the formation of specific characteristics and practical knowledge of students in the study of folk crafts in technology classes.

**Kalit so'zlar:** Vosita, texnologiya, ijodkorlik faoliyati, innovatsiya, bilim, hunarmandchilik, xalq, ta'lif, tizim, meros, qobiliyatlar.

**Ключевые слова:** инструмент, технологии, творческая, деятельность, инновации, знания, мастерство, люди, образование, система, наследие, способности.

**Key words:** tool, technology, creative activity, innovation, knowledge, craft, people, education, system, heritage, skills.

Xalqaro miqyosida bo'lajak mutaxassislarini innovatsion xarakterga ega bo'lgan ta'lif texnologiyalari asosida tayyorlash, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va zamonaviy ta'lifni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi ta'lif muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy mahorati mezonlari, ularni kasb-hunarga yo'naltirishga kreativ yondashishi, innovatsion ta'lif muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta'lif standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Texnologiya ta'lifi mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra



ko‘pgina ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uyg‘unlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tadbiq etishni ko‘zda tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda texnologiya ta’limi maktab tizimi umumta’lim fanlarida o‘rganiladigan nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog‘laydigan quvvatli didaktik vositadir. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya ta’limining maqsad va vazifalarini belgilab olishni nazarda tutiladi: Maktabgacha ta’lim-tarbiya bosqichida bolalarning yosh, ruhiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat dunyosi, jarayoni, kishilari, buyumlari to‘g‘risidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlar uyg‘otish, maqsadli ish-harakat usullari ko‘proq o‘yinlar tarzida o‘rganib boriladi. Boshlang‘ich mакtabda (I-IV - sinflar) o‘quvchilarni mehnat va hunarmandchilik dunyosi, o‘simliklarni parvarish qilish, turli materiallar bilan tanishtirish, oddiy ishlov berish, oddiy mehnat va hunarmandchilik asboblari va mehnat, ish-harakat usullari to‘g‘risida sodda tasavvurlar hosil qilishni ko‘zda tutadi. Bu davrda o‘quvchilar texnologiya ta’limidan o‘zlashtirgan bilimlar ko‘lamini o‘zlarining hayotiy tajribalarida va oiladagi mehnat jarayonida mustahkamlaydilar va kengaytirib boradilar. Tayanch maktablarda (V-IX – sinflar) da o‘quvchilar umummehnat ko‘nikma va malakalarini shaklantiriladi, qiziqish va moyilliklariga ko‘ra, o‘z-o‘zini kasbiy jihatdan aniqlashlari, kasb-hunar turlarini tanlashlarini ta’milanadi, qiziqish va moyilliklari rivojlantiriladi, umummehnat madaniyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi, xalq xo‘jaligi va hunarmandchilikning sohalari, ularda ishlatiladigan asbob-uskunalar, texnika va texnologiya bilan tanishtiriladi, mehnat faoliyatining turli qirralarida ishtirok etishlari ta’milanadi. Yuqori sinflarda texnologiya ta’limi va kasblarga yo‘naltirish kursi ishchi va mutaxassislarning amaliyotida qo‘llanadigan turli xil qo‘l asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalarini o‘rgatishni, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrorashtirilgan vositalar bilan ishlashni, mehnat qonunchiligi xavfsizligi, sanitariya-gigiena qoidalari va yo‘l-yo‘riqlari asoslarini o‘rgatishni ta’minlaydi. Shuningdek, bu davrda o‘quvchilarda xalq xo‘jaligining va hunarmandchilikning asosiy sohalari bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishni tashkil etib, turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Ushbu kurslarda o‘quvchilar kasbiy mahoratlarini



takomillashtira borib, tanlagan kasblari bo‘yicha tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli mehnat jarayonida qatnashish imkoniyatiga va huquqiga ega bo‘ladilar.

Texnologiya ta’limining yuqorida ko‘rsatilgan maqsadiga erishishi uchun qo‘yidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

-turli sohalardagi ishlab chiqarish mazmuniga ega vazifalarni yechish, tajribalar o‘tkazish, o‘lchov-tekshiruv asboblaridan, ma’lumotlardan foydalana olish, mehnat operatsiyalarini bajarish, olingan natijalarni talab etilgani bilan taqqoslash yo‘li bilan xulosa chiqarishga o‘rgatish;

-o‘quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnat ahillariga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat, do‘stlik, o‘zaro hurmat ruhida tarbiyalash;

-o‘quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, xaridorgir iste’mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirishga odatlantirish, o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarni o‘zlari iste’molchiga yetkazishlariga o‘rgatish, ish boshqaruvchilik (menejerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini singdirib borish va rivojlantirish. Texnolgiya ta’limini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar, xalqimiz ruhiyatini yashash tarzini, an’analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida milliy hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko‘p qirralari boy merosini o‘rganish, o‘zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo‘llash vazifasini hal etadilar. Texnologiya ta’limining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an’anaviy sinf-dars mashg‘ulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, bo‘lg‘usi hunarmandning shaxsiy xislatlarini shakllanishida, ularning oilalarini moddiy ta’minlanishida hamda tarixiy qadriyatlarning yanada boyishida ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. “Ustoz-shogird” tizimi mashg‘ulotlarini tashkil etishni oliy o‘quv yurtlaridagi musiqa ta’limida talabalar bilan o‘qituvchilarning yakka tartibdagi mashg‘ulotlar o‘tkazishi bilan taqqoslash mumkin.

Texnologiya ta’limida elektron hisoblash texnikasi, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrorashtirilgan qurilmalar, avtomatikaning qo‘llanilishini o‘rganish, o‘quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi avtomatik va dasturli boshqarish



tizimlari, robot texnika va ishlab chiqarish texnikasini, texnologiyasini ta’limning davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda o’rganilishini ta’minlaydi. Keyingi vaqtarda kam e’tibor berilayotgan, hatto yo‘qolib borayotgan turli xildagi ta’limi-tarbiyaviy tadbirlar: o‘quvchilar ishlab chiqarish jamoalari, maktablararo o‘quv ishlab chiqarish markazlari, o‘quvchilar mehnat jamoalari va boshqalar mazmunan va shaklan qayta ko‘rib chiqilib, qayta ishlab, zamon ruhiga moslashtirilishi va ta’lim tizimi amaliyotiga qo’llanilishi, mehnat ta’limining maqsad, vazifalarini amalga oshirishda asosiy shart-sharoitlardan hisoblanadi.

Texnologiya ta’limini amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar, oila, jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalq hunarmandlarining tajribalari hamda o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlari tiklanib, o‘quv jarayonida foydali mahsulot–tovar moddiy ne’matlar yetishtirilib, ta’lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishida erishish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ахлиддинов Р. Умумий ўрта таълимни такомиллаштиришнинг ташкилий педагогик асослари: Дисс. пед. фан. номзоди 1998 й.
2. Ahmadaliyev S.Y Bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga moslashishining ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. – T.: TDPU. 2008. – 187 b.
3. Innovatsion ta’lim texnologiyalari /Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
4. Rajabova D.A Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish. Международный современный научно-практический журнал. Новости образования: Исследование в XXI веке № 3 (100), часть 1
5. Rajabova D.A. Texnologik ta’lim yo’nalishida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanini o‘qitishda kreativ yondashuvlardan foydalanishning shakllari va vositalari. Belorus-O’zbek ilmiy-metodik jurnal. 2023y.5-son. 98-b.



6.Rajabova D.A. Raqamli ta'limga talabalar kreativligini rivojlantirish jarayoni va samaradorligini baholash. KASB-HUNAR TA'LIMI. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal 5-son,188-192 betlar. 2024-yil.

7.Rajabova D.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish. Международный современный научно-практический журнал Новости образования: Исследование в XXI веке № 3 (100) сентябрь 2022 г.